



## DUNYO HAMJAMIYATIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING O'ZIGA XOS YO'LLARI

To'xtasinov Asadbek Umidjon o'g'li

*Farg'ona davlat universiteti, talaba, O'zbekiston, Farg'ona shahar*

**Annotatsiya:** *Korrupsiya tushunchasiga ta'rif. Birlashgan millatlar tashkiloti konferensiyalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining faol harati va ularning bu illat yuzasidan asos deb biladigan fikr va mulohazalari batafsil yoritilib ko'rsatilib o'tilgan. Korrupsionerlarga qarshi kurashishning zamonaviy yo'llari. Korrupsiya – millat kushandasi. O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'llari yoritib o'tilgan*

**Kalit so'zlar:** "BMT", "Korrupsiya", "Ichki va tashqi mustaqil", "Magistratura", "Zamonaviy yechimlar" "Poraxorlik" "Nafs" "Huquqiy ong" "Huquqiy madaniyat" "Jamoatchilik nazorati" "Talontoraj qilish"

### KIRISH

Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o'tiladi. Korrupsiya bizning kunlarga yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tagtugi bilan yo'qotib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan G'arb davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo'lolmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash masalasi butun dunyoda o'ziga xos global masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash choralari qanchalik samarali yo'lga qo'yilsa shu davlatning ertangi taraqqiyoti shu darajada ijobiy tomonga o'sib boradi. Bu borada jahon mamalakatlarida bir qancha islohotlarni amalga oshirmoqda. Korrupsiyaning kelib chiqishi tarixi va rivolanishi masalalarini Nikkolo Makiavelli o'rganib, uni yo'talga qiyoslab shunday degan edi, "Korrupsiyani ham yo'talga o'xshab oldin aniqlash qiyin, ammo davolash oson, lekin bu kasalni o'tkazib yuborsangiz uni aniqlash oson, ammo davolash qiyin". Mana shu so'zardagi haqiqatni bugungi kunda dunyo bo'yicha keng tarqalgan korrupsiya ko'rinishlariga nisbatan ham qo'llash mumkin bo'ladi.

"Demokratik islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan aholining siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatiga bog'liqdir. Bunda aholining inson huquq va erkinliklariga, qonunlarga hurmat munosabatida bo'lishini, uning konstitusion huquqlarini anglashini, Vatan taqdiriga, mamlakatda va dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg'usi bilan qarashini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Jamiyat huquqiy madaniyatining yuqori darajada bo'lishi aholining mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligini, uning belgilab olingan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishishga qiziqishi va mas'uliyatini, yuz berayotgan



o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usini oshishiga yordam beradi, muhim qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolarning ishtirokini jiddiy kengaytiradi"[1, 146].

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'lumki "Korrupsiya" tushunchasi lotin tilidagi "corruptio" so'zidan olingan bo'lib, mazmuni "buzish, sotib olish" ma'nosini beradi va uning grammatik bir ildizli ma'nosi yana "korroziya" so'zi ya'ni "chirish yoki zanglash" degan mazmuni ham beradi. Shundan kelib chiqib bu so'zni ijtimoiy ko'rinishi hokimiyatni buzish, chiritish orqali sotib olish" degan ma'noni beradi.

Tadqiqotchilar korrupsiyaning asosiy sabablari sifatida to'rtta omilni ko'rsatadilar:

Birinchisi, iqtisodiy sabablar. Korrupsiyaning bu ko'rinishi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni bevosita ma'muriy yo'l bilan boshqarishga intilgan, hokimiyat va byurokratiyaning mavqei baland bo'lgan sharoitda rivoj topadi. Iqtisodiy faoliyatga nisbatan o'rnatilgan turli xildagi cheklashlar, amaldorlarning teng nazoratdan holi, cheklanmagan yoki ruxsat berish, yoki ta'qiqlash vakolati korrupsiyaga zamin yaratadi.

Ikkinchisi, huquqiy sabablar. Korrupsiyaning rivoji qonunlarning sifatiga bog'liqdir. Mukammal bo'lmagan qonunlar ishlaymaydi va ayrim uddaburonlar bundan ustalik bilan foydalanadilar.

Uchinchisi, institutsional sabablar bo'lib, ularga avvalo, davlat boshqaruvi tizimidagi nuqsonlar, demokratik institutlarning kuchsizligi, shuning natijasida hukumat faoliyatining yopiqligi yoki fuqarolik nazoratidan holiligi kiradi.

To'rtinchisi, ijtimoiy sabablar yoki jamiyatdagi muhit, aholining huquqiy bilimi, madaniyat darajasi, ma'naviyati, uyushqoqligi va jamoat faolligi pastligidir.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan qo'yilayotgan postlarning aksariyat asosiy qismini aynan shu mavzu tashkil qilmoqda va korrupsiyaning mohiyatida insonning buzuq nafsi turganligini ko'rishimiz mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Pan Gi Mun 2015-yil 9-dekabrda murojaatida: "Biz 2030-yilga qadar qashshoqlikka barham berish va barcha uchun munosib hayotni ta'minlashni rejalashtirar ekanmiz, barqaror rivojlanish bo'yicha yangi kun tartibida korrupsiyaga qarshi har tomonlama kurashish zarurligini tan olamiz va noqonuniy moliyaviy oqimlarni sezilarli darajada qisqartirish va o'g'irlangan mulkni qaytarishga chaqiramiz, degan." [2]

#### NATIJA VA MUHOKAMA

Korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro tadbirlar:

2003-yildan buyon Transparency International har yili Global korrupsiya barometrini nashr etib keladi. 2004-yildan boshlab ushbu hisobot Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuniga to'g'ri keladi.

2015-yildan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi „Korrupsiya zanjirini uzing“ deb nomlangan qo'shma xalqaro kampaniyani, shu jumladan, fuqarolarni ijtimoiy tarmoqlarda #breakthechain xeshtegini qo'llab-quvvatlashga to'g'ridan-to'g'ri chaqiruvni boshlagan.



Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmini belgilovchi asosiy manba O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni hisoblanib, uning asosiy maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Ushbu qonunda shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday naf qonunga xilof ravishda taqdim etishiga - korrupsiya deb ta'rif berilgan. Qonunning 5-moddasida esa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yonalishlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash nazarda tutilgan. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar hodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari qonunning 16, 17, 18-moddalarida o'z ifodasini topgan.[3] Zero, huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, ma'naviyati, axloqi yetuk bo'lgan insonlardan nafsining quli chiqish qiyin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida javobgarlik belgilangan quyidagi ijtimoiy xavfli qilmishlar korrupsiyaviy jinoyatlar deb belgilanishi mumkin bo'lgan "O'zlashtirish yoki rastrata yoli bilan talon-toroj qilish", "Jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish; hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish", "Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish"; "Hokimiyat harakatsizligi"; "Pora olish"; "Pora berish"; "Pora olish-berishda vositachilik qilish"; "Xizmatchini pora evaziga og'dirish"; "Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish"; "Yolg'on guvohlik berish"; "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish"; "Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish"; "Hokimiyatni suiistemol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi" kabi normalar mustahkamlangan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 11.02.2020 yilda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda jamoatchilik nazorati tizimlarini takomillashtirish masalalari bo'yicha o'tkazgan yig'ilishda ushbu masalaga yana bir bor e'tibor qaratib, mutasaddilarga xorijiy tajriba asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tuzilmani tashkil etishga doir hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan bergan topshiriqlarida mazkur tuzilma nafaqat bu borada davlat siyosatini amalga oshirishi va muvofiqlashtirishi, balki korrupsiyaga qarshi kurashishda barcha kuch va vositalarga ega bo'lishi kerakligini ko'rsatib o'tgan.[4]

Ushbu masalaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2020 yil 11 may kuni bo'lib o'tgan to'rtinchi yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori ham e'tibor



qaratib, yangi agentlikka tezkor qidiruv, tekshiruv va tergov vazifalarini yuklatish masalasi ko'rilayotganligini, shuningdek tergov vakolatlari berilgan Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati organlarining tergov va tezkor qidiruv faoliyat vakolatlarini bu organga olib berishdan holi holda, yangi agentlikka ham shu huquqlar berilishini, faqat ularning jinoyat subyektlarini belgilashda aniq chegara qo'yilishini, agentlik zimmasiga mansabdor shaxslarning qonun hujjatlariga zid harakatlari, davlat haridlari, budjet mablag'larining sarflanishi bo'yicha jarayonni nazorat qilish, deklaratsiya tizimini joriy etish ishlari ham yuklatilishini ta'kidlab o'tgan.[4]

Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, dunyo mamlakatlari qanchalik korrupsiyaga qarshi kurashmasin, bu illat kishilarning qon qoniga singib ketgan. Shunga qaramasdan, korrupsiyaviy holatlar kundan kunga ortib borsa boryabdiki, kamaymayabdi.

Xulosa

Muxtasar aytganda, korrupsiya — taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi xavfli jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, barchaning ishi bo'lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo'lamiz.

#### ADABIYOTLAR:

1. A.Jalilov, U.Muhammadiev, Q. Jo'raev va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2015.
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Pan Gi Mun 2015-yil 9-dekabrda murojaati.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev 11.02.2020 yilda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda jamoatchilik nazorati tizimlarini takomillashtirish masalalari bo'yicha o'tkazgan yig'ilishi.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2020 yil 11 may kuni bo'lib o'tgan to'rtinchi yalpi majlisi.
5. Nilufar, M. (2023). FORMATION OF LEGAL CULTURE AMONG YOUNG PEOPLE AND ITS IMPORTANCE IN BUILDING A CIVIL SOCIETY. IMRAS, 6(7), 416-421.
6. Dadaboeva, D. A. (2021). Civil-legal regulation of educational services. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 448-453.
7. Mamajonova, D. (2024). LEGAL BASIS FOR THE FORMATION OF INTELLECTUAL CULTURE IN YOUNG PEOPLE. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(2), 341-348.
8. Karimova, G. (2022). CORRUPTION: ITS HISTORICAL ROOTS AND WAYS TO COMBAT IT. Research Focus, 1(4), 267-272.